

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 17 - mart

95-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani "Qoybaq" OFY hududidan
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2022-yil 26-sentabr kuni o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishning 71-sonli bayonining 12-bandi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-sentabrdagi 500-sonli qarori ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasining 2022-yil 3-noyabrdagi 14-5143-sonli buyurtma xatini inobatga olib, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qorao'zak tumani "Qoybaq" OFY hududidagi tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 255,0 yer maydoni O'zbekiston Respublikasi Tog' kon sanoati va geologiya vazirligiga "Berkuttau" misga istiqbolli konida mis ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berilsin hamda yer uchastkasining elektron xaritasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Tog' kon sanoati va geologiya vazirligi (Sh.Alimov)dan:

- ajratilgan yer maydoniga qurilish loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

- ajratilgan yer uchastkasini belgilangan tartibda tadbirkorlik subyektiga yer

qa'ridan foydalanish maqsadlari uchun ijara huquqi asosida taqdim etish;

- ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash so'ralsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga tegishli o'zgartirishlar kiritсин.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 17 martdagi
95-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova



O'zbekiston Respublikasi Tog' kon sanoati va geologiya vazirligiga
Qorauzak tumani "Qoybaq" OFY hududida "Berkuttau" misga istiqbol maydanshasi ushun
ajratib berish rejalashtirilgan yer uchastkasining joylashish

TARXI
M - 1: 20000



Yer uchastkasi haqida qisqacha málumotlar: Qorauzak tumani "Qoybaq" OFY hududida joylashgan bo'lib,

Shimol tomondan: Oshiq maydon,

Garb tomondan: Oshiq maydon,

Sharq tomondan: Oshiq maydon,

Janub tomondan: Oshiq maydon,

WGS-84 Koordinatalari:

1. 42° 09'50.23"C 60°30'18.79"B

2. 42° 09'43.20"C 60°31'48.08"B

3. 42° 09'01.53"C 60°31'37.47"B

4. 42° 09'08.96"C 60°30'15.35"B

Tuman markazidan: 104 km radius masofada

Qorauzak tumani "Qoybaq" OFY hududida joylashgan

Yer uchastkasi maydoni: 255 ga

Yerfondi: Tuman xazira yerlari

Qaysi maqsadda foydalansa boladi : "Berkuttau" misga istiqbol maydanshasi ushun

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar

Ball banite'i : Boxolanmagan

Yer uchastkasining kadastr raqami : 23:14:05:02:02:0523